

ANTROPONIMLARNING JAHON TILSHUNOSLIGIDA SHAKLLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810610>

Saidova Lolaxon Maxammadjonovna

Andijon davlat chet tillari instituti

lolaxon972@gmail.com

ORCID iD: 0009-0004-4966-725X

Annotatsiya

Mazkur maqolada antroponimlarning jahon tilshunosligida o'rganilish tarixi, nazariy asoslari va ilmiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda antroponimik qarashlarning qadimgi yunon va rim manbalaridan boshlab XIX–XX asrlarda G'arbiy Yevropa va rus tilshunosligida shakllanish jarayoni ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari antroponimikaning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va istiqbollari belgilashga xizmat qiladi hamda shaxs nomlarini kompleks lingvistik tahlil qilishning nazariy asoslarini yoritadi.

Kalit so'zlar

antroponimika, onomastika, shaxs ismlari, lingvokulturologiya, semantika, etimologiya, sotsiolingvistika, nominativ birlik.

Аннотация

В данной статье анализируются история изучения антропонимов в мировом языкознании, их теоретические основы и основные научные направления. В исследовании научно освещается процесс формирования антропонимических взглядов — от древнегреческих и римских источников до становления антропонимики как самостоятельного направления в западноевропейском и русском языкознании XIX–XX веков. Результаты исследования способствуют определению места и перспектив антропонимики в современном языкознании, а также раскрывают теоретические основы комплексного лингвистического анализа личных имен.

Ключевые слова

антропонимика, ономастика, личные имена, лингвокультурология, семантика, этимология, социолингвистика, номинативная единица.

Abstract

This article analyzes the history of the study of anthroponyms in world linguistics, their theoretical foundations, and major research directions. The

research scientifically explores the development of anthroponymic views from ancient Greek and Roman sources to their formation as an independent field in Western European and Russian linguistics of the 19th–20th centuries. The results of the study contribute to defining the role and prospects of anthroponymy in modern linguistics and reveal the theoretical foundations for the comprehensive linguistic analysis of personal names.

Keywords

anthroponymy, onomastics, personal names, linguoculturology, semantics, etymology, sociolinguistics, nominative unit.

Antroponimika – insonlarga oid ismlar tizimini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi bo‘lib, u onomastikaning muhim tarmog‘ini tashkil etadi. Bu soha o‘zida «shaxs ismlari (antroponimlar)», «famiyalar», «taxalluslar», «laqablar» patronimlar va boshqa shaxsga oid nomlarni lingvistik jihatdan tahlil qiladi.. Antroponimlar, o‘z navbatida, til tizimining o‘ziga xos qatlami sifatida qaraladi va ular fonetik, morfologik, semantik, stilistik va madaniy aspektlarda tahlil qilinadi. Antroponimlar til tizimining o‘ziga xos leksik qatlami sifatida insonning ijtimoiy, madaniy, tarixiy va milliy hayotini aks ettiradi. Shu bois, antroponimlarning lisoniy talqinlari jahon tilshunosligida hamisha dolzarb masala bo‘lib kelgan³⁰.

Antroponimik tadqiqotlar jahon tilshunosligida XX asrning o‘rtalaridan boshlab alohida yo‘nalish sifatida shakllandi. Dastlabki antroponimik kuzatuvlar qadimgi yunon va rim tarixchilarining asarlarida uchraydi. Ammo ilmiy yo‘nalish sifatida bu soha XIX asrda G‘arbiy Yevropa filologiyasi doirasida rivojlandi.

Bu davrda A. Meillet, F. de Sossyur, L. Shteynxauser, E. Benvenist kabi olimlar ismning til tizimidagi o‘rni, semantik tabiati va ijtimoiy funksiyasiga e‘tibor qaratganlar³¹. Ularning fikricha, ism shunchaki identifikatsion birlik emas, balki u tarixiy-madaniy belgining ham tashuvchisidir. Shu tariqa, antroponimlar tildagi boshqa nominativ birliklardan farqli o‘laroq, “individual ma’no” ga ega leksik birlik sifatida talqin qilingan

XX asrning o‘rtalariga kelib, antroponimika mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu davrda rus tilshunosligida N.A. Baskakov, A.V. Superanskaya, V.A. Nikonov, o‘z navbatida g‘arbda R. Coates, W. van Langendonck, C. Hough kabi tadqiqotchilar antroponimlarning semantik, etimologik, sotsiolingvistik va pragmatik tahlil yo‘nalishlarini ishlab chiqdilar³². A.V. Superanskaya o‘z

³⁰ Nicolaisen, W.F.H. Names, Language and Context. Berlin: Mouton de Gruyter, 1995.

³¹ Meillet, A. Introduction à l’étude comparative des langues indo-européennes. Paris, 1903

³² Superanskaya, A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. Moskva: Nauka, 1973

tadqiqotlarida antroponimlarni “inson jamiyatidagi eng qadimiy nominativ birliklar” deb ataydi va ularning lingvokulturologik mohiyatini yoritadi ³³

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida fransuz tilshunosi A. Dauzat, nemis olimi E. Schröder, rus tilshunosi va adabiyotshunosi V. V. Vinogradov, amerikalik olim E. H. Sturtevant kabi olimlar shaxs nomlarining etimologik, tarixiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilishdi.

A. Dauzat o‘zining 1925-yil yozilgan “Les noms de personnes: origine et évolution” nomli asarida antroponimlarni “til, tarix va madaniyatning kesishgan nuqtasi” sifatida talqin qildi. U ismning lingvistik, etnografik va sotsial funksiyalarini ajratib ko‘rsatgan.

E. Benvenist va R. Jakobson kabi strukturalistlar ismni “belgi tizimi” sifatida o‘rgandilar. Ularning nazarida ism – ma’nosiz emas, balki “denotativ yo‘nalishli semiotik birlik” dir.

Shu davrda antroponimika “onomastika” fanining asosiy tarkibiy qismi sifatida shakllandi va “antroponim, toponim, etnonim, zoonim” kabi tarmoqlarga ajratildi.

Antroponim so‘zining lug‘aviy ma’nosini anglashdan oldin biz antroponomika atamasiga nazar tashlashimiz lozim. Ismlarni o‘rganish borasida tilshunoslikda ismshunoslik yoki nomshunoslikning bir sohasi – onomastika bo‘lib, antroponomika kishilar ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabilar o‘rganiladi.” Antroponim”-“antropos odam,+ onyma-nom, kishining atoqli oti, nom” deb ta’rif beriladi. Antroponomika-yunoncha ‘antros’-shaxs’ va ‘onoma’-ism so‘zidan olingan bo‘lib, leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (nomlarini) o‘rganuvchi bo‘limidir³⁴. Antroponomika nutqda antroponimning vazifasini aniqlab, insonning jamiyatga kirishi, boshqa e’tiqodga o‘tishi, yoshi, ijtimoiy yoki oilaviy ahvolining o‘zgarishi, boshqa millatdagi odamlarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan farqlash, aniqlash, ismlarning o‘zgartirishi, ularning kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo‘llanilishi, faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlari, antroponomik tizimlar tuzilishi va rivojlanishi antroponomikaning tarkibiy qismidir. Antroponimiya- tilda mavjud bo‘lgan barcha kishilar atoqli otlari majmuidir. Ilgari antroponimiya o‘rnida “onomastika” atamasi qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik fanni ismga oid bo‘lgan ma’lumotlar, ya’ni insonning urug‘-aymog‘i, otasi, millati, kelib chiqishi va insoniy fazilatlarini tahliliga ko‘ra qayta nomlaganlar. Antroponimlar mazmun-mohiyatini o‘rganish tadqiqotlar diqqat markazida bo‘ldi.

Antroponimlar ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilishiga qaramay, uning pragmatik va kognitiv xususiyatlari hali ham yetarlicha o‘rganilmagan.

³³ Nikonov, V.A. Imya i obshchestvo. Moskva, 1974

³⁴ Yo‘ldoshev, M. A. O‘zbek tilida antroponimlarning shakllanishi va turlari. - Toshkent: Fan, 1984

Antroponimlarni o'ziga xos xususiyatlari tahlili matnda nom bilan aloqador semantik o'zgartirishlar sabablarini aniqlashga imkon beradi.

Dunyodagi turli xalqlarda turlicha antroponimik tizim mavjud bo'lgan. Masalan, Qadimgi Rimda har bir erkak xos ismi oldidan keladigan nomga - avloddan avlodga o'tadigan urug` nomiga ega bo'lgan, bu urug`ning shajarasini tavsiflagan. Hozirgi Ispaniya va Portugaliyada bir kishi bir necha xos (katolik cherkovi ro'yhatidan olinadigan) ismga, otasi va onasining familiyasiga ega bo'lishi mumkin. Islandiyada har bir kishi, bir necha xos ismga (cheklangan ro'yhatdan olingan) va familiya o'rnida otasining ismidan hosil bo'lgan nomga ega bo'ladi. Xitoy, Koreya, Vetnamda kishi nomi bir bo'g`inli familiyadan (turli davrda ular 100dan 400 gacha bo'lgan) va xos (odatda ikkita bir bo'g`inli morfemadan tashkil topgan) ismga ega bo'ladi, xos ismlar miqdori cheklanmaydi ³⁵.

Shuningdek, nomlarning afsonaviy va tarixiy aloqalari ham muhimdir. O'rta asrlarda buyuk shaxslar, davlat arboblari, tarixiy va diniy peshqadamlar nomlari ko'pincha avloddan avlodga o'tib, o'sha shaxslarning hurmatini va o'rni haqida xabar beradi.

Jahon tilshunosligida antroponimlar ustida olib borilgan tadqiqotlar ko'plab yo'nalishlarga ega bo'lib, ayniqsa 20-21-asrlarda ularning «lingvistik, sotsiolinguistik, pragmatik, psixolingvistik va madaniyatshunoslik» nuqtai nazaridan o'rganilishi kengaydi. Ular semantik tahlil, etimologik tadqiqotlar, madaniy kodlar va ijtimoiy kontekstda baholanadi. Ayniqsa, globalizatsiya jarayonida madaniyatlararo aloqa kuchaygani sari antroponimlarning madaniy va lisoniy talqini yangi ma'nolar kasb etmoqda.

Antroponimlarning lisoniy talqini tilni chuqur o'rganish, milliy tafakkurni tushunish, madaniyatlararo kommunikatsiyani yoritish va ijtimoiy omillarni tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi.

G'arb tilshunosligida ham antroponimlarning semantik-pragmatik talqini keng rivojlandi. Masalan, R. Coates 2006-yilda antroponimlarni "referring expressions" (nomlovchi birliklar) sifatida o'rganib, ularning ma'no va referensiya o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi. Shuningdek, 2007-yilda W. van Langendonck antroponimlarning semantik strukturasi "categorical meaning" va "pragmatic meaning" jihatidan tahlil etgan. Unga ko'ra, ismning ma'nosi ijtimoiy kontekstdan, madaniy an'anadan va nutq aktidan kelib chiqadi.

Jahon tilshunosligida antroponimlarning sotsiolingvistik va etnolingvistik jihatlari ham chuqur o'rganilgan. Xususan, D. Crystal, P. Trudgill, va J. Algeo asarlarida ism tanlash jarayoni ijtimoiy tabaqalanish, milliy identitet va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi⁷. Shuningdek, etnolingvistika

³⁵ Benveniste, É. *Le vocabulaire des institutions indo-européennes.* Paris: Minuit, 1969

doirasida ismning xalq mentaliteti, mifologiyasi, diniy tasavvurlari bilan aloqasi tahlil qilingan (masalan, J. Lecarme, M. A. Harder tadqiqotlari

Turli tillarda antroponimik tizimlarning shakllanishi, ularning semantik, etimologik va funksional jihatlari qiyosiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Shuningdek, zamonaviy antroponimlarning globalizatsiya sharoitidagi o'zgarishlari va ularning lingvokulturologik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari antroponimika bo'yicha xalqaro tadqiqotlar doirasida lingvistik birliklarni kontekstual tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Benveniste, É. Le vocabulaire des institutions indo-européennes. Paris: Minuit, 1969
2. Nicolaisen, W.F.H. Names, Language and Context. Berlin: Mouton de Gruyter, 1995.
3. Meillet, A. Introduction à l'étude comparative des langues indo-européennes. Paris, 1903
4. Superanskaya, A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. Moskva: Nauka, 1973
5. Yo'ldoshev, M. A. O'zbek tilida antroponimlarning shakllanishi va turlari. - Toshkent: Fan, 1984
6. Maxammadjonovna, S. L. (2022). L'ENSEIGNEMENT DE LA LITTÉRATURE EN DIDACTIQUE DU FLE. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(4), 155-157.
7. SL. Maxammadjonovna. Places of use of anthroponyms in uzbek. Ethiopian International Journal of multidisciplinary research. 2024. стр. 33-35
8. Анарбоева, И. О. (2025). Гендерные принципы номинативных единиц (на примере французского и узбекского языков). *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 13(2), 136-139.